

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING FUNKSIONAL YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

Zoxidova Madina Turg'unboyevna
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
madinazohidova1903@gmail.com +998 902311098
ORCID.ID 0009-0003-3099-6494

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak pedagoglarning funksional yondashuvga asoslangan pedagogik mahoratini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlarini o'rganadi. Maqolada funksional yondashuvning mohiyati, uning pedagogik ahamiyati va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada pedagogik mahoratni rivojlantirishning zamonaviy usullari, interaktiv ta'lim texnologiyalari va amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: funksional yondashuv, pedagog mahorati, mualliflik metodlari, ta'lim tizimi, innovatsion pedagogika, kasbiy kompetensiya.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА.

Аннотация: Данная статья исследует научно-педагогические возможности развития педагогического мастерства будущих педагогов на основе функционального подхода. В статье анализируется сущность функционального подхода, его педагогическое значение и роль в формировании профессиональных компетенций будущих учителей. Кроме того, в статье рассматриваются современные методы развития педагогического мастерства, интерактивные образовательные технологии и эффективность практических занятий. Результаты исследования завершаются практическими рекомендациями, направленными на совершенствование профессиональной подготовки будущих педагогов.

Ключевые слова: функциональный подход, педагогическое мастерство, авторские методы, система образования, инновационная педагогика, профессиональная компетенция.

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING THE PEDAGOGICAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS BASED ON A FUNCTIONAL APPROACH.

Annotation: This article explores the scientific and pedagogical opportunities for developing the pedagogical skills of future teachers based on a functional approach. The article analyzes the essence of the functional approach, its pedagogical significance, and

its role in shaping the professional competencies of future educators. Additionally, the article examines modern methods of developing pedagogical skills, interactive educational technologies, and the effectiveness of practical training. The research results conclude with practical recommendations aimed at improving the professional preparation of future teachers.

Key words: functional approach, pedagogical skills, authoring methods, education system, innovative pedagogy, professional competence.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi bevosita pedagog kadrlarning kasbiy mahorati va kompetensiyasiga bog'liq. Bugungi kunda o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish masalasi ta'lim sohasidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. [1,23-b]. Funktsional yondashuv asosida ishlab chiqilgan mualliflik metodlari bu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan samarakli ta'lim faoliyatida, bo'lajak pedagoglarda pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan interaktiv va kreaiv ilmiy izlanishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Pedagogik mahoratni oshirishda pedagogika fanlarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanishning o'rni beqiyos hisoblanadi. Har bir bilim ayni uning savollariga javob topishga bog'liq xolda yahlitlanadi, bo'lajak pedagoglarning mahoratini oshirishda talabalarning intellektual faoliyatini tashkil qilish masalasi katta ahamiyatga ega. Shu sababli o'qitiladigan fan doirasida topshiriqlarni bajarish davomida ularning aqliy salohiyatini oshirishga bog'liq mavjud adabiyotlardan funktsionallik, induktiv tahlil, mahorat pedagogik kasbiy mahorat uning mohiyati, shakllanish hususiyatlari va imkoniyatlarini o'rganib chiqdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'limda funktsional yondashuv bilimlarning inson hayotiy faoliyati davomida zaruriyati hamda uni bilishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, mustaqil faoliyati davomida tajribalar hamda amaliy topshiriqlar asosida funktsional vazifalari nuqtai nazaridan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma hamda malakalarni tarkib toptirishga qaratilgan jarayondir. Pedagogik mahoratning shakllanishida funktsionallilikning o'rni ahamiyatli. Bilish xususiyatining tizimli bir-biriga bog'liq holda umumiy o'rganish intellektual yuqori saviyaning garovi hisoblanadi.

Funktsional yondashuvning mohiyati- bu pedagogik faoliyatni tizimli ravishda tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beruvchi metodologik asos bo'lib, ta'lim jarayonining har bir komponenti aniq funksiyaga ega bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. [2, 156-b]. Pedagogik mahoratni rivojlantirishda funktsional yondashuv samaradorlikni baholash mezonlarini aniqlash imkonini beradi

Pedagogik mahoratning komponentlari haqida pedagogika-psixologiya sohasidagi olimlardan Y.N.Kulyutkin va G.S.Suxobskaya pedagogik mahoratning asosiy komponentlari sifatida:

kommunikativ malakalar – o'qituvchining o'quvchi bilan to'g'ri muloqot qilishi;

tashkilotchilik qobiliyati – darslarni rejalashtirish va tashkil qilish mahorati;

Emotsional barqarorlik – stress holatlarida o‘zini to‘g‘ri tutish ekanini ta’kidlagan [3]. Kommunikativ malaka, tashkilotchilik qobiliyati va emotsional barqarorlik pedagogning mahoratidagi asosiy tarkibiy qism ekanini va uning rivojlatirilishi pedagogi mag‘oratni bevosita shakllanishi mumkinligi haqida fikr bildirgan.

Pedagogik qobiliyatlar – o‘qituvchining bilim berish jarayonini samarali tashkil qilish qobiliyati.

Ta’lim jarayonini boshqarish – o‘quv jarayonini tashkil etishda psixologik va metodik yondashuvlar.

Professional motivatsiya – o‘qituvchining o‘z kasbiga bo‘lgan ixlos va fidoyiligi”[4]. kabi tarkibiy qismlarga ajratgan. Aelita Kapitonovnaning pedagogik mahoratni bunday tarkibiy qismlarga ajratishida psixologik nuqtayi nazar va kasbiy faoliyatning umumiy uyg‘unlashuvi asosida aniqlashtirilgan g‘oyaviy fikr mavjud.

Sh.A. Amonashvili pedagogik mahoratni ijodiy yondashuv bilan bog‘laydi va o‘qituvchidan individual yondashuv hamda o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Uning fikricha pedagogik mahorat 2 ta pedagogik layoqat ya’ni:

“Ijodiy tafakkur – o‘qituvchining yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqishi.

Psixologik tushunish – o‘quvchining ehtiyojlarini va his-tuyg‘ularini chuqur anglash” [5]. dan iborat ekanini ta’kidlab o‘tgan. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili, sotsiologik so‘rovnoma va psixologik testlarni statistikasi asosida tadqiqot yuzasidan pedagogik mahorat tushunchasining tarkibiy komponentlarini tasniflaymiz. Pedagogik mahorat o‘qituvchining samarali va ijodiy faoliyatini ta’minlaydigan muhim sifatlarni qamrab olishini ta’minashiga ustuvorlik berildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Pedagogik mahoratni tadqiqot doirasida quyidagi 5 ta tarkibiy qismga ajratdik:

Pedagogik mahoratning **birinchi tarkibiy komponenti** bu pedagogik bilim. Pedagogik bilim – Bo‘lajak pedagogning ta’lim va tarbiya jarayonining nazariy asoslarini to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lishi bilan tasniflash mumkin. Bunda bo‘lajak pedagoglarning mutahassislik doirasidagi fanlarning o‘zlashtirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Umumiy o‘qitiluvchi kurs ichidagi majburiy va tanlov fanlaridagi umumiy maqsad yo‘nalish doirasida mehnat bozori uchun tayyorlanayotgan pedagogik kadrlarning “bozorbo‘p”, haridorgir va garmonik rivojlangan o‘qituvchi shaxsini tayyorlash uchun yo‘naltirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Har bir kasbning egasi bo‘lish uchun shu kasb doirasidagi fundamental nazariy bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish shu kasb doirasidagi mahoratni yuqori darajaga yetishida muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari pedagogik soha vakillari uchun pedagogikaga oid nazariy bilimlarni egallash kerakli amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi qiyinchiliklarni oldini olishda ham katta ahamiyatga egadir.

Pedagogik mahoratning **ikkinchi tarkibiy komponenti** kasbiy pedagogik malakalarning shakllanganligidir. Pedagogika sohasidagi asosiy fundamental nazariy bilimlarni egallagan bo‘lajak pedagogda kasbiy pedagogik malakalar shakllanadi. Bu malakalarning shakllanganligini biz bo‘lajak pedagoglarda darsning mazmun mohiyatini

to'la tushuntirib berishda uni to'g'ri rejalashtirish, polisyujet shakllangan darsni tashkil qilish, o'quvchilarning e'tiborini tortish, auditoriyani o'zlashtirish va o'z navbatida darsni bir tomonlama shakllantirmaslik, auditoriyadagi ta'lim oluvchilarning dars qatnashchilariga aylantirish, jamoaviy va individual yondashuvni to'g'ri almashlash, ta'lim oluvchilar jamoasini darsga qatnashish koyefitsentini oshirish, yaxshi o'zlashtiruvchilar sonini bosqichma-bosqich, sust o'zlashtiruvchilar sonidan ko'paytirib, oxir oqibat o'zlashtirish ko'rsatkichni to'liq koyefitsiyentga yetkazishga doimiy intilish, ta'lim oluvchilar orasida sog'lom o'quv muhitini yarata olish, dars jarayonida jamoaviy va individual shaklda do'stona raqobatni tashkillash va o'z navbatida kim o'zarga ma'nosiz o'qishdan chetlanish, shaxsiy va moddiy manfaat yuzasidan baholashdan yiroqlashib, holis refleksiv mexanizmni tashkillash, refleksini o'quvchilarning iste'dodi va imkoniyatlariga qarab tashkillash kabi malakalarni o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan malakalarning ta'lim berish jarayonidagi o'rnini beqiyosdir, agar mazkur malakalarni ma'lum tizim asosida birlashtirib, to'g'ri mexanizm asosida birlashtiradigan bo'lsak, o'qituvchi shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanaishiga erishilganidan dalolat beradi. Chunki, yuqoridagi keltirilgan malakalar faqatgina pedagogika sohasidagi rivojlanish uchungina emas, balki, umumbashariy va umummilliy qadriyatlar asosidagi insonparvar yondashuvning asosiy omillari hisoblanadi.

Pedagogik mahoratning **uchinchi tarkibiy komponenti** kommunikativ qobiliyatlardir. Buyuk rus olimi I.P.Pavlovning "Nutq bizni odam qildi" [6]. qabilidagi fikrlari bejiz emas. Bashariyatning eng katta ma'lumot almashinuvini ta'minovchi vositasi bu shubhasiz nutqdir. Ma'lum bir sohaga oid bilimlarini avlodlar almashinuvi davomida o'zidan keyingi vakilga topshirish insoniyatning boshlang'ich davrlaridan to hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrda nutq asosiy o'tkazgich vazifasini bajargan. Pedagogika sohasidagi asosiy metodlarni klassifikatsiyalashda ham og'zaki va yozma nutqning alohida klassifikatsiya birligi sifatida qayd etilishi fikrimizning yaqqol dalili hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirishda kommunikativ vositalarning rang barangligi, to'liqligi, ishonarliligi, politon xususiyatga ega bo'lishi, yoqimlilik, o'ziga jalb qila olishi ahamiyatlidir.

Pedagogik mahoratning **to'rtinchi tarkibiy** qismi ijodiy tafakkur va pedagogik intuitsiya pedagogning kasbiy mahoratining asosiy elementlari hisoblanadi. Ular pedagogik faoliyatda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, murakkab vaziyatlarni samarali hal etish va o'quv jarayonini rang-baranglashtirishda hizmat qiladi. Ijodiy tafakkur pedagogga o'quv jarayonida noan'anaviy metod va texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar qiziqishini oshirish imkonini beradi. Masalan, standart dars o'tkazish o'rniga, o'quvchilarni rag'batlantiradigan o'yinli yoki amaliy mashg'ulotlar tashkil etish ijodiy tafakkur samarasidir. Shu bilan birga, ijodiy yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quvchilar ehtiyojlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Pedagogik intuitsiya esa tajriba va bilim asosida shakllanadigan darhol va aniq qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Pedagogik mahoratning **beshinchi** va eng muhim tarkibiy qismi pedagogik texnikadir. Pedagogik texnika va pedagogik mahorat o'rtasidagi bog'liqlik ta'lim

tizimining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnika, pedagogning o'qitish jarayonida qo'llaydigan amaliy usullar, vositalar va aloqalardan iborat bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarga bilim berish, ularning qiziqishini uyg'otish va har bir talabaning individual ehtiyojlariga javob berish maqsadida qo'llaniladi. Pedagogik mahoratdagi professional salohiyati, ya'ni o'qituvchining ta'lim berishdagi ijodiy qobiliyati, tajribasi va o'quvchilar bilan ishlash usullarini o'z ichiga oladi. Pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun pedagogik texnikaga e'tibor berish muhim, chunki texnika pedagogning o'qitishdagi samaradorligini oshirishda muhimdir. Masalan, o'qitishning interaktiv usullari, ko'rsatmalar va vizual vositalar pedagogik texnikaga kirsada, ular pedagogning mahoratli ishlashini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bo'lajak pedagoglarning funksional yondashuv asosida pedagogik mahoratini rivojlantirish jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining muhim qismidir. Funksional yondashuv bo'lajak o'qituvchilarga kasbiy faoliyatida muammolarni hal qilish, ijodkorlikni rivojlantirish va talabalarning individual ehtiyojlariga javob berish qobiliyatini beradi. Ushbu yondashuvning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari kompetensiya yondashuvi, amaliy faoliyatni rivojlantirish, fanlararo integratsiya va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchidan nafaqat nazariy bilim, balki funksional yondashuvlarni qo'llash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Pedagogik mahoratni oshirish uchun o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi metod va texnologiyalarni o'zlashtirishi, ta'limjarayonida samarali kommunikatsiya va psixologik yondashuvlarni qo'llashi zarur. Zamonaviy ta'limning asosiy talabi - o'quvchilarni faollikka, mustaqil izlanishga va ijodiy fikrlashga o'rgatishdir. Shu sababli, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Kelajakda pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar va ilg'or pedagogik yondashuvlarni joriy etish, xalqaro tajribani o'rganish va innovatsion ta'limtizimlarini ishlab chiqish o'z dolzarbligini aslo yo'qotmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktyabrdagi - O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limtizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini to'g'risidagi PF-5847-son Farmoni. Qonun hujjatlari to'plami milliy bazasi <https://lex.uz/>

2. Abdullayeva Q. "Pedagogik mahorat asoslari". Toshkent, 2023

3. Smith J. "Functional Approach in Modern Education". Educational Review, 2024

4. Индивидуальные различия в мыслительной деятельности взрослых учащихся / Ю.Н. Кулюткин, Г.С. Сухобская ; Академия педагогических наук

СССР, Научно-исследовательский институт общего образования взрослых. М. : Педагогика, 1971

5. Маркова А. К. Психология труда учителя: Кн. для учителя. — М.: Просвещение, 1993 — 192 с. - (Психол. наука — школе) . — ISBN 5-09-003639-X.

6.Амонашвили Ш. А. Здравствуйте, дети!: Пособие для учителя/ Предисл. А. В. Петровского. - М.: Просвещение, 1983. - 208 с., ил.

7. Нобелевская речь физиолога Ивана Петровича Павлова (12 декабря 1904, Стокгольм). Развитие личности, (4), 101-114.

8. Karimov B. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar". O'qituvchi, 2023

9. Wilson R. "Teacher Professional Development". Education Quarterly, 2024